

SHARTNOMA № 02/ADMN

Qurilish ob'ekti bo'yicha

Andijon shaxri.

"28" 10 2022y.

"O'z Auto-Austem" QK MCHJ jamiyat nizomiga asosan ish yurituvchi Bosh direktori G'aybullaxo'jaev J. Yo., bundan keyin "Buyurtmachi" deb yuritiladigan bir tomondan va "MILLIY QURILISH PARDOZ" MCHJ nomidan nizomga asosan faoliyat yurituvchi direktor Abduxalimov R. bundan buyon "Pudratchi" deb yuritiluvchi ikkinchi tomondan mazkur shartnomani korxonaning **marketing bo'limi ombori maydonini betonlash (keyingi o'rnlarda Betonlash)** ishlarini bajarish to'g'risida tuzildi.

I. Atamalar:

1.1 Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar ishlatiladi:

Shartnomada "ijro xujjalari": "loyixa-smeta xujjalari" (LSX), "qurilish maydoni", "vaqtinchalik inshoatlar", "berkitiladigan ishlar" atamalari qo'llanilgan. Atamalarning izoxi Vazirlar Maxkamasining 2003-yil 12-sentyabrdagi 395-sonli qaroriga 3-ilovadagi "namunaviy pudrat shartnomasi"ning 1-bandiga asosan qo'llanilgan.

"joriy moliyalashtirish": Shartnomada belgilangan ishlar qiymatini, xaqiqatda bajarilgan ishlar xajmidan kelib chiqib xolda bosqichma-bosqich moliyalashtirib borish;

"mablag' bilan ta'minlovchi organ": Pudratchi tomonidan bajariladigan ishlar uchun burtmachini mablag' bilan ta'minlovchi organ "O'z Auto-Austem" QK MCHJ

II. Shartnoma mavzusi.

2.1. Pudratchi ushbu shartnoma shartlariga muvofiq **korxona hududidagi ombor maydonini betonlab tekislash** ishlarini loyixasida ko'zda tutilgan qurilish-montaj ishlarni bajarib ob'ektni foydalanishga topshirish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa qurilish ishlarini bajarilishi uchun ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, zarur shart sharoitlar yaratish, ishlarni qabul qilish, belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati.

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha, tanlov savdosi natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (*etender.uzex.uz saytidagi Lot №163819 e'lon bo'yicha*) 2022-yil "24" oktabr kungi №_____ bilan tasdiqlangan. Pudratchi tomonidan bajariladigan ishlar qiymati Qo'shilgan qiymat solig'i (15%) bilan **782 980 882 (yetti yuz sakson ikki million to'qqiz yuz sakson ming sakkiz yuz sakson ikki)** so'mni tashkil qiladi.

3.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda; ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

3.3. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV.Pudratchining majburiyatli

4.1.Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va/yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnama imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.2. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V.Buyurtmachining majburiyatlar

5.1.Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lган qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lган davrda dalolatnama bo'yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa

funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

shartnomaga binoan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddati.

6.1. Shartnoma:

milliy valyuta «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilinganda - tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab;

keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilinganda - shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

6.2. Pudratchi mazkur shartnomaga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

6.3. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha obyektni topshirish muddati avans to'lovi to'langan kundan boshlab 65 ish kunni tashkil etadi.

VII. To'lovlar va xisob-kitoblar

7.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida ishlar umumiyligi qiyamatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu **234 894 264 (ikki yuz o'ttiz to'rt million sakkiz yuz to'qson to'rt ming ikki yuz oltmish to'rt)** so'mni tashkil etadi.

7.2. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ob'ektning umumiyligi shartnomaviy joriy qiyamatining 95 foizigacha doirasida amalga oshiriladi.

7.3. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiyamatining qolgan 5 foizi ob'ektni foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi va nazorat o'lchovi rasmiylashtirilgandan so'ng amalga oshiriladi. Qurilish ob'ektining sifati bo'yicha bir yillik kafolat muddati saqlanib qolinadi.

7.4. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

7.5. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.



VIII.Ishlarni ishlab chiqarish.

8.1. Buyurtmachi qurilish ishlari yakuni bo'yicha nazorat o'lchovini o'tkazish yuzasidan vakolatli tashkilotni tayinlaydi, u Buyurtmachi nomidan bajarilgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilanligan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjaligini muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

8.3. Pudratchi texnik auditorni ishslash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

8.4. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'llimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.5. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjalarda belgilangan tartibda javob beradi.

8.6. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

8.7. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtida Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjalarni beradi.

8.8. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

8.9. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lism o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lism va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

8.10. Pudratchi geodeziya bo'lism ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

8.11. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

8.12. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktorsiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjalarda ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lismi hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjalarga ega bo'lismi kafolatlaydi.

8.13. Alohida mas'uliyatlari konstruktsiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

8.14. Qabul qilinadigan konstruktsiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruktsiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasini bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvi dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

8.15. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

8.16. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligesiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

8.17. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilar tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiyamatini ko'paytirmsandan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 8.16-bandining ikkinchi xatboshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

8.18. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

8.19. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. Ishlarni ximoya qilish

9.1. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

9.2. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olingenidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

X. FORS-MAJOR.

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI.Tugallangan qurilishni qabul qilish.

11.1.Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lган belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

11.2. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingen kundan boshlab 5 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

11.3. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

11.4. Qabul qilib olingen paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII.KAFOLATLAR

12.1.Pudratchi:

- barcha ishlarni to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

- loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

12.2. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida bir yil etib belgilanadi.

12.3. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

12.4. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlarni ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «Davarxitektqurilishnazorat» organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudga murojaat qilishini istisno etmaydi

XIII.Bitimning bekor qilinishi

13.1.Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnoma belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yordi va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.2. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiymatini Pudratchiga to'laydi.

13.4. Mazkur shartnomanini bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

13.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

13.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnoma nazarda tutilgan hollar bundan mustasno

XIV.Tomonlarning mulkiy javobgarligi

14.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

14.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga riosa qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

14.4. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida penya to'laydi.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariiga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lмаган ishlar qiymatining 50 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

14.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

14.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XV. Korrupsiyaga qarshi ogoxlantirish

15.1 Tomonlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita, shahsan yoki uchinchi shahslar orqali pulni, boshqa qimmatbaxo narsalarni, mulkiy xuquqlarni yoki boshqa moddiy va (yoki) nomoddiy ne’matlarni olish va olishga rozilik berish, tovlamachilik, takliflar, va’dalar, so‘rovlар qilishdan tiyadilar, asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish, shu jumladan Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga mos kelmaydigan maqsadalarga erishish uchun ularga ta’sir etish.

15.2 Tomonlar ushbu xarakatining oldini olish choralarini kafolatlaydi.

15.3 Tomonlar ochiqchasiga qonunbuzarlik to‘g‘risidagi gumon qilinayotgani yoki shartnomani amalga oshirishga ishtirok etayotgan tomonlar, hodimlar, benefitsiarlar, affilangan shahslar yoki boshqa shahslar tomonidan buzilganda ;

15.4 Agar Tomonlardan biri ikkinchi tomon, uning hodimlari, benefitsiarlari, affilangan shahslari yoki Bitimni amalga oshirishda ishtiroq etuvchi boshqa shahslar tomonidan amaldagi qonunchilik va/yoki ushbu Shartnomannig korrupsiyaga qarshi kurash qoidalarini buzganligi to‘g‘risida asosli shubxalar mavjud bo‘lsa, sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkun bo‘lsa, ushbu Tomon unga so‘rov olingan kundan boshlab 10(o‘n) ish kuni ichida xuquqbuzarlik faktini rad etuvechi yoki tasdiqlovchi izoxlar va ma’lumotlarni/xujjatlarni taqdim etish talabi yozma so‘rov yuborishiga xaqli;

15.5 Agar Tomonlardan biri ushbu bobning talablariga rioya qilmasa, shuningdek, boshqa Tomon belgilangan muddat ichida buzilish sodir bo‘Imagani yoki ro‘y bermasligi to‘g‘risida tasdiqlov olmagan bo‘lsa, va Tomon korrupsiyaga havfini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirgan bo‘lsa, boshqa Tomon ushbu Shartnomani bir tomonlama bklgilangan tartibda bekor qilish, shuningdek uning bajarilishini to‘xtatish huquqiga ega;

15.6 Ushbu bobda ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha Shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan Tomonga yetkazilgan zararni qoplash ushbu Shartnomaning tegishli moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi, bunda ushbu bobdagi majburiyatlarni buzgan Tomon xuquqqa ega emas. Shartnomaning belgilangan bir tomonlama bekor qilinishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

15.7 Agar shartnoma bo‘yicha Tomon tashkilot hodimlarining ushbu Shartnoma va/yoki amaldagi qonunchilikning korrupsiyaga qarshi kurash qoidalariga zid bo‘lgan xarakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid xuquqbuzarliklarni sodir etishga majburlash faktlariga duch kelsa, bu xaqda Tomonlardan biri orqali habardor qilishi shart

XVI.Nizolarni hal etish tartibi

16.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo‘ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

XVII. Maxsus shartlar

17.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

17.2. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

17.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

17.4. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

17.5. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

17.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi nonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

17.7. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVIII. Taraflarning yuridik manzili va to'lov ma'lumotlari

«Buyurtmachi»

«Pudratchi»

"O'zAuto-Austem" MChJ QK

Andijon shaxar Boburshox 73 uy

ATB "Xamkorbank" Amaliyot bo'limi

MFO:00083, STIR: 301 866 345

Xr: 2021 4000 7048 9185 8001

“MILLIY QURILISH PARDOZ” MCHJ

Andijon shaxar Industrial ko'cha 8-uy

ATB Hamkorbank Amaliyot boshqarmasi

MFO: 00083 STIR: 303046224

X/r: 2020 8000 6003 9059 9001

Korxonan bosh direktori

G'aybullaxon jaev J. Yo.

Direktor:

Abduxalimov R/



KELISHUV

Мазкур	Харид сектори	Сифоз ба стандарт бўйича	Демонстрация тотини бўйича	Бош бўханча бўйича	Бош дарс тотини 1-бринди сарч	Юрискан супор